



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

HINDIY TILIDA QIMMATBAHO TOSHLAR NOMLARINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

Sayyora Raximova

O‘qituvchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: jig‘a, kalgi, sarich, safaviy, karanful, nath, mang, bali, Akbarnoma, kundan.

Annotatsiya: Ushbu maqola hindiy tilida qimmatbaho toshlar va metallar nomlaridan yasalgan frazeologik birliklarda qo‘llanilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Hindiy tilidagi o‘ttizta frazeologik birliklar tanlab olingan va tahlil qilingan. Ushbu frazeologik birliklar qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil qilingandir. Shuningdek, hindiy tilida qimmatbaho tosh nomlari bilan yasalgan frazeologizmlarning aksariyat qismi maqol va matal shakliga kelib qolganligi ham aytib o‘tilgan. Yana qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil qilingan frazeologik birliklarning ichki bo‘linishi turlari sxemalar tavsifida aniq ko‘rsatib berilgan. Hindiy tilidagi qimmatbaho toshlar nomi ishtirokida hosil bo‘lgan frazeologik birliklar o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ma’no turlariga taqsimlandi. Maqsad – jamlangan misollarning aksariyati qaysi birikmaga xosligini aniqlash hamda ularning o‘xshash hamda farqli tomonlarini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

CHARACTERISTICS OF USING THE NAMES OF PRECIOUS STONES IN HINDI IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Sayora Rakhimova

Lecturer,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: jigga, kalgi,

Abstract: This article describes the use of phraseological

sarich, safavi, karanful, nath, mang, bali, Akbarnoma, kundan..

units made up of the names of precious stones and metals in Hindi and their specific features. During the analysis, 30 phraseological units selected from Hindi. Most of these phraseological units had taken from Hindi proverb and sayings. In addition, the diagram clearly shows which phraseological units are included in all the phraseological units that make up the names of precious stones. Phraseological units formed with the name of precious stones in the Hindi language were divided into meaning types according to their characteristics. The goal is to determine which compound most of the collected examples belong to and to show their similarities and differences.

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ НАЗВАНИЙ ДРАГОЦЕННЫХ КАМНЕЙ НА ХИНДИ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Саёрах Рахимова

Преподаватель,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

джелига, калги, сарич, сафави, каранфул, натх, манг, бали, Акбарнома, кундан.

Аннотация:

В данной статье описывается употребление фразеологизмов, состоящих из названий драгоценных камней и металлов в хинди, и их специфические особенности. В ходе анализа было отобрано 30 фразеологизмов из языка хинди. Большинство этих фразеологизмов заимствовано из пословиц и поговорок хинди. Кроме того, на схеме явно показано, какие фразеологизмы входят во все фразеологизмы, входящие в состав наименований драгоценных камней. Фразеологизмы, образованные с названием драгоценных камней в языке хинди, были разделены на смысловые типы по своим характеристикам. Цель состоит в том, чтобы определить, к какому соединению относится большинство собранных примеров, и показать их сходство и различие.

KIRISH

O‘zining boy madaniy merosi bilan azaldan butun dunyoni o‘ziga jalb etib kelgan Bangladeshda xalq san’ati nihoyatda rivoj topgan. Qadim zamonlardan buyon qimmatbaho toshlarga ishlov berish muhim soha hisoblanadi va uni davom ettirish an’anaga aylangan. Ushbu mamlakat nafaqat Janubiy va Sharqiy Osiyoda, balki butun dunyoda eng a’lo sifatli oltin bezaklar va zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchi maskan hisoblanadi. Hindiston va Bangladesh zargarlik sanoatida mahsulotlar qo‘l mehnati bilan hamda zamonaviy uskunalar yordamida ishlab chiqariladi. Ushbu bezak va buyumlarning marosimlarda qo‘llanilishi alohida tadqiqot mavzusini tashkil etadi. Biz ushbu maqolamizda hindiy tilida qo‘llanib kelinayotgan qimmatbaho tosh nomlari, ularning tarjimasini va ushbu qimmatbaho toshlar nomlari bilan yasalgan fraziologik birikmalarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Biz hozirgi o'zbek tilidagi o'nta qimmatbaho toshlar nomini keltiramiz. Mumtoz o'zbek tilida mazkur tosh nomlarining sinonimi ko'p bo'lgan¹. Ushbu qimmatbaho toshlar nomlarining hindiy tilida ko'pchiligining ikkitadan ortiq tarjimalari aniqlandi:

T/r	O'zbekcha	Hindiycha
1.	<i>Rubin</i>	मणिक (<i>manik</i>) चुन्नी (<i>chunni</i>) लाल (<i>laal</i>)
2.	<i>Sapfir</i>	नीलम (<i>niilam</i>) नीलमणि (<i>niilmani</i>) शनिप्रिय (<i>shanipriya</i>)
3.	<i>Olmos</i>	हीरा (<i>hiiraa</i>)
4.	<i>Marvarid</i>	मौक्तिक (<i>maohtik</i>) मुक्ता (<i>mukta</i>) मोती (<i>motii</i>)
5.	<i>Amitist</i>	नीलमणि (<i>niilmani</i>) बिल्लौर (<i>billaor</i>)
6.	<i>Zumrad</i>	जमुरद (<i>zamurrad</i>) मरकटमणि (<i>markatmani</i>)
7.	<i>Topaz</i>	पुष्पराग (<i>pushpraag</i>) पुखराज (<i>pukhraaj</i>)
8.	<i>Kumush</i>	चाँदी (<i>chandi</i>) रजत (<i>rajat</i>) रौप्य (<i>raopiya</i>)
9.	<i>Oltin</i>	सोना (<i>sonaa</i>) स्वर्ण (<i>svaran</i>) महरजत (<i>maharajat</i>) रजत (<i>rajat</i>)
10.	<i>Platina</i>	प्लेटिनम (<i>pletinam</i>)

Ushbu o'nta qimmatbaho toshlar nomlarining bengal tilida ayrimlarining ikkitadan ortiq tarjimalari aniqlandi:

T/r	O'zbekcha	Bengalcha
1.	<i>Rubin</i>	রুব প থর [<i>rubo pokhor</i>]
2.	<i>Sapfir</i>	প থর জ [<i>pokhroj</i>]
3.	<i>Olmos</i>	হীরা [<i>hiira</i>]
4.	<i>Marvarid</i>	একটি মণি [<i>ekti moni</i>] চুনি [<i>chuni</i>]
5.	<i>Amitist</i>	নীলা [<i>niila</i>]
6.	<i>Zumrad</i>	পান্না [<i>paannaa</i>]
7.	<i>Topaz</i>	ট প জ [<i>topoj</i>] পোখরাজ [<i>pokhraaj</i>]
8.	<i>Kumush</i>	রূপা [<i>ruupaa</i>]
9.	<i>Oltin</i>	সোণা [<i>shona</i>] কনক [<i>konok</i>] সুবর্ণ – [<i>shuborno</i>]
10.	<i>Platina</i>	প্ল্যাটিনাম [<i>pletinam</i>]

Bizga ma'lumki, har bir tilda o'ziga xos turli xil erkin birikmalar bilan bir qatorda frazeologik birliklar ham keng qo'llaniladi va ular o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosi Sh.Rahmatullayevning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar uchga, ya'ni frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma va frazeologik butunlik kabi turlarga bo'linadi².

Biz hindiy tilidagi qimmatbaho toshlar nomi ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ma'no turlariga taqsimlashni lozim deb bildik. Maqsad – jamlangan misollarning aksariyati qaysi birikmaga xosligini aniqlash va ularning o'xshash hamda farqli tomonlarini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Frazeologik chatishmada frazemadan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga mos kelmaydi, ya'ni uning tarkibidagi so'zlar ifoda etgan ma'no ortasida hech qanday leksik aloqa sezilmaydi³.

¹ Abu Rayhon Beruniyning qimmatbaho toshlar haqida maxsus asari bor.

² Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T.: "O'qituvchi", 1996. 175-bet.

³ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. T.: "Qomuslar", 1992. 379-bet.

Hindiy tilida qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan o'ttizta frazeologik birliklar tanlab olindi. Ushbu frazeologizmlardan o'n sakkizta ibora frazeologik chatishma ekanligi aniqlandi. Shulardan ayrimlarini misol sifatida aytib o'tamiz. M.:

T/r	Hindcha	O'zbekchaga so'zma-so'z tarjimasi	O'zbekchada ko'chma ma'nosi
1.	मोटियों से मुंह भरना (<i>motiyon se muh bharna</i>)	<i>marvariddan yuz o'girmoq</i>	
2.	चांदी काटना (<i>chandi katna</i>)	<i>kumush kesmoq</i>	
3.	सोने की चिड़िया (<i>sone ki chiriya</i>)	<i>tilla qush</i>	<i>ko'p daromad ko'rish mumkin bo'lgan joy, narsa, tilla tuxum qo'yuvchi tovuq</i>

Mazkur frazeologizmlardan सोने की चिड़िया (*sone ki chiriya*) iborasining asl ma'nosi "ko'p daromad ko'rish mumkin bo'lgan joy, narsa va shu kabilar". Ushbu frazeologizmni o'zbek tilida "tilla tuxum qo'yuvchi tovuq" ma'nosida qo'llash mumkin.

Frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda etgan iboralar frazeologik butunliklar hisoblanadi⁴. Yuqorida sanab o'tilgan frazeologizmlardan uchta ibora frazeologik butunlik ekanligi ma'lum bo'ladi. Shulardan ayrimlarini misol sifatida keltirib o'tamiz:

T/r	Hindcha	O'zbekchaga so'zma-so'z tarjimasi	O'zbekchada ko'chma ma'nosi
1.	चांदी होना (<i>chandi hona</i>)	<i>kumush bo'lmoq</i>	<i>katta daromad olmoq, iqtisodiy foyda ko'rmoq</i>
2.	चांदी की ऐनाक लगाना (<i>chandi ki ainak lagaanaa</i>)	<i>kumush ko'zoynak taqmoq</i>	<i>pora olish bilan ishni bajarmoq</i>
3.	सोने लेकर मिट्टी तक न देना (<i>sone lekar mitti tak na denaa</i>)	<i>oltin olib, loyni ham ilinmaslik</i>	<i>g'irromlik qilmoq, o'ta pishqlik qilmoq</i>

Frazeologik qo'shilma tarkibidagi birgina so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqalari esa o'zning lug'aviy ma'nosini saqlaydi⁵. Yuqorida sanab o'tilgan frazeologizmlardan o'nta ibora frazeologik qo'shilma ekanligi ma'lum bo'ladi:

T/r	Hindcha	O'zbekchaga so'zma-so'z tarjimasi	O'zbekchada ko'chma ma'nosi
1.	सोने का घर मिट्टी करना (<i>sone ka ghar mitti karna</i>)	<i>tilla uyni loy qilmoq</i>	<i>oltin uyni yer bilan yakson qilmoq</i>
2.	मोटियों के तौल बिकना (<i>motiyon ke taul bikna</i>)	<i>marvaridga teng mqdorda sotilmoq</i>	<i>o'ta qimmatbaho</i>

Hindiy tilidagi frazeologizmlarni tahlil qilish jarayonida aksariyat iboralarning ijobiy ma'noda, ba'zilarining esa salbiy ma'noda qo'llanishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ham salbiy,

⁴ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati –T.: "Qomuslar". 1992. 379 bet

⁵ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati –T.: "Qomuslar". 1992. 379 bet

ham ijobiy va betaraf ma'noda qo'llanuvchi frazeologizmlar ham uchradi. Mazkur holatni quyidagi jadvalda tahlil natijalariga asoslangan holda to'liq aks ettirishga harakat qildik:

Hindiycha	O'zbek tilidagi muqobillari	Frazeologik birliklar		
		<i>fraz. butunlik</i>	<i>fraz. chatishma</i>	<i>fraz. qo'shilma</i>
चांदी बरसना (chaNdi barasna) चांदी काटना (chaNdi kaTna) चांदी होना (chaNdi hona)	Bir yil tut ekkan kishi, qirq yil gavhar terar. Oltin chiqqan joyni, odam bo'yi qazilar. Qanoat – qizil oltin.	✓	✓ ✓	
मोती ढलकाना (moti dhalkaana)	Baxtsizlikdan oltin ham xira			✓
लाल उगलना (laal ugalna)	So'zing kumush bo'lsa, tinglovching oltin bo'lsin. So'zing kumush bo'lsa, ishing oltin.			
सोने का घर मिट्टी करना (sone ka ghar miTTi karna)	Yolg'onchi gavharni xor qilar.			
सोने की चिड़िया (sone ki chiRiya)	Zari borning, zo'ri bor. Zarli zariga ishonar, zarsiz kuchiga.	✓		
मोती गरजना (moti garajna) मोटियों के तौल बिकना (motiyon ke Taol bikna)	Gavhar balchiqqa tushgani bilan, qiymati o'zgarimas. Gavhar yerda qolmas. Oltin balchiqda ham oltin.			✓ ✓

Hindiy tilida qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning qo'llanilishi bo'yicha quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub hind-oriy tillari guruhiga oid tillardagi qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklar o'rganilganda, hindiy tilidagi misollarning aynan frazeologik birikma shaklida ekanligiga amin bo'ldik. Ta'kidlash joizki, tahlil qilingan frazeologik birliklarning 55% *frazeologik chatishma* holida ekanligi aniqlandi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, hindiy tilida qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologizmlarning asosiy qismi maqolga o'xshash tarzda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ammo ularni maqol deb

bo'lmaydi, chunki hindiy tilidagi maqollar frazeologizmlardan aniq farqlanadi, lekin ularning orasidagi o'xshashlikni ko'rish mumkin. Masalan:

T/r	Hindiycha	O'zbekcha
1.	कूड़ा करकट में पड़े तो भी सोना सोना ही है (kooRa karkat me paRe to bhi sona sona hi hen)	<i>Axlat ichida bo'lsa ham, oltin oltinligicha qoladi</i>
2.	सोने की चिड़िया हाथ से निकल जाना (sone ki chiRiya hath se nikal jaanaa)	<i>Oltin qushni qo'ldan boy bermoq</i>

Xulosa qilib aytganda, biz ushbu ifodalar o'rtasidagi o'xshashlikdan qat'i nazar, ularning qay biri maqol, qay biri frazeologik birlik ekanligini aniq bilamiz. Tahlil jarayonida misollardagi 15% ibora *frazeologik qo'shilma* va 10% ibora *frazeologik butunlik* ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, umumiy xulosa sifatida shuni aytib o'tish mumkinki, biz tadqiq qilayotgan qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklar qo'llanish va yasaliish jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega ma'no ko'lami ko'p qirrali ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunday ekan, uzoq asrlar davomida shakllanib kelgan frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda matbuotda o'tkir ta'sirchan tasvir quroli sifatida keng qo'llanib kelingan. Yozuvchilar o'z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga, mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qo'llashgan. Ayrim hollarda ularni qisman o'zgartirib ishlatishgan. Ba'zan esa shu usul bilan yangi iboralar yaratganlar. Shu tarzda frazeologizmlarga bo'lgan alohida e'tibor yanada ortib boravergan. Ushbu maqolani o'zbek va hindiy tillaridagi qimmatbaho tosh nomlari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik birliklar, maqollar va matallarning mazmuniy izohi bilan yakunladik.

Gavhar		
mazmuni	frazeologizm	maqol
<i>mehnatsevarlik va ishyoqmaslik</i>	odam gavhar, qo'li gul (<i>frazeologik butunlik</i>)	<i>Kumushdek ter to'ksang, gavhardek dur olasan</i>
<i>kamtarlik va manmanlik</i>	–	<i>Kamtar bo'lding – gavhar bo'lding</i>
<i>to'g'ri so'z va yolg'onchilik</i>	–	<i>Yolg'onchi gavharni xor qilar</i>
<i>qadr-qimmat va qadrsizlik</i>	gavhar balchiqqa tushganda ham qiymati o'zgarmas (<i>frazeologik qo'shilma</i>) gavhar – yerda yotmas (<i>frazeologik qo'shilma</i>)	<i>Gavhar ko'p bo'lsa – qadri qolmas</i> <i>Gavhar qadrini ko'r bilmas</i>
<i>dehqonchilik va chorvachilik</i>	–	<i>Bir yil tut ekan kishi, qirq yil gavhar terar</i>
Oltin		
mazmuni	frazeologizm	maqol
<i>mehnatsevarlik va ishyoqmaslik</i>		<i>Yer qazimasang oltin chiqmas, qarmoq solmasang baliq</i>
		<i>Mehnat yerda qolmas, oltin yo'lda</i>
		<i>So'zing kumush bo'lsa, ishing oltin</i>
<i>yaxshilik va</i>		<i>Oltin olma duo ol – duo oltin</i>

<i>yomonlik</i>		<i>emasmi?! Oltin olma olqish ol, olqish oltin emasmi?!</i>
<i>donolik va nodonlik</i>		<i>Javob oltin bo'lsa, savol kumush</i>
<i>kamtarlik va manmanlik</i>		<i>O'tmas pichoqqa oltin sop Tug'ilmagan tilovga, tilla beshik</i>
<i>baxt-omad va baxtsizlik</i>		<i>Baxtsizlikda – oltin ham xira</i>
		<i>Kumush kunga qo'nasa, oltin o'z oyog'i bilan kelar</i>
		<i>Qizga oltindan taxt emas, barmoqday baxt tila</i>
<i>to'g'riso'z va yolg'onchilik</i>		<i>Va'da oltindan qimmat</i>
<i>sabr-qanoat va sabrsizlik</i>		<i>Sabr so'nggi – sof oltin Qanoat – qizil oltin</i>
<i>samaradorlik va besamarlik</i>		<i>Oltin, kumush tosh bo'lar, tomoqdan o'tsa, osh bo'lar Oltin chiqqan joyni, odam bo'yi qazilar</i>
<i>do'stlik va dushmanlik</i>		<i>Do'stlik oltinga sotilmas, mehmon – pulga</i>
<i>mehmonnavozlik</i>	<i>uchdan o'tsa – pes (frazologik butunlik)</i>	<i>Birinchi kun mehmon – oltin mehmon</i>
		<i>Ikkinchi kun – kumush</i>
		<i>Uchinchi kun – mis</i>
<i>mehr oqibat va oqibatsizlik</i>		<i>Elda er atalsang, el senga oltin tovoqda osh berar</i>
<i>qadr-qimmat va qadrsizlik</i>		<i>Arpa, bug'doy osh bo'lar, oltin-kumush tosh bo'lar</i>
		<i>Bulbul uchgandan so'ng, oltin qafasni o't olsin</i>
		<i>Kimhob to'ning bo'lguncha, oltin boshing omon bo'lsin</i>
		<i>Minnatli tilladan, beminnat chaqa yaxshi</i>
		<i>Oltin-kumushning eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi</i>
	<i>oltin – balchiqda ham oltin</i>	<i>Oltin boshli xotindan, chelak boshli er yaxshi</i>
		<i>Oltin yerda qolmas, yaxshilik yo'lda</i>
		<i>Oltin yerda, hunar cho'lda qolmas</i>
		<i>Oltin yerda qolsa ham, bilim yerda qolmas</i>
	<i>umr qarzga berilmas, otinga ham sotilmas</i>	<i>Qo'ldagi oltinning qadri yo'q</i>
<i>muhabbat va</i>	<i>sevganing oltindan</i>	<i>Oltin zanglamas, sevgi qarimas</i>

<i>bevafoqlik</i>	<i>aziz (frazeologik qo'shilma)</i>	
<i>ishonch va ishonchsizlik</i>		<i>Noma'lum yerda oltin bor, borsang paqir (mis tanga) topilmas</i>
<i>andisha va andishasizlik</i>		<i>Xotining oltinga o'ch bo'lsa, zargarga o'ynash bo'lar So'zing kumush bo'lsa, tinglovching oltin bo'lsin</i>
<i>mehnatsevarlik tabiat ifodasi</i>		<i>Oltin o'tda bilinar, odam mehnatda Chilla suvi – tilla suvi</i>
<i>mamnunlik va afsuslanish</i>		<i>Oltin boshli otang bilan qolguncha, pahmoq boshli onang bilan qol</i>
		<i>Oltin halqadan kech – quloq og'ritsa, zardo'zi etikdan kech – oyoq og'ritsa</i>
Dur va sadaf		
mazmuni	frazeologizm	maqol
<i>mehnatsevarlik</i>		<i>Ter to'ksang dur olasan</i>
<i>sabr- qanoat va sabsizlik</i>	<i>har sadafdan dur chiqmas</i>	
<i>mehnat va mashaqqat</i>		<i>Gul tikansiz bo'lmas, dur sadafsiz</i>
<i>qiyos</i>		<i>Dono durdan a'lo</i>
Zargar va zar		
mazmuni	frazeologizm	maqol
<i>qudrat va ojizlik</i>		<i>Zari borning zo'ri bor</i>
		<i>Zarli zariga ishonar, zarsiz kuchiga</i>
<i>o'g'rilik va firibgarlik</i>		<i>Zargar firibgar bo'lsa, oltin zanglar</i>
		<i>Yurtda o'g'ri topilmasa, zargarni dorga os</i>
<i>odob va odobsizlik</i>		<i>Odob – kishining zeb-u ziynati</i>
<i>go'zallik va xunuklik</i>		<i>Shaharda bitta xotin topilsa, zargar ochdan o'lmas</i>
<i>kamtarlik va manmanlik</i>		<i>Qizim bor deb kerilma, zeb ziynatga berilma</i>
		<i>Qadr-qimmat va qadrsizlik</i>
		<i>Zar qadrini zargar bilar, chilangar neni bilar</i>
		<i>Zargar ishini misgar o'ng'ay sanar</i>
		<i>Zar bo'masa – zargar xarob</i>

चांदी – <i>chandi</i> (kumush)		
No	frazeologizm	o‘qilishi
1	चांदी कर डालना या कर देना	chandi kar Dalna ya kar dena
2	चांदी बरसना	chandi barasna
3	चांदी काटना	chandi kaTna
4	चांदी की ऐनक लगाना	chandi ki eynak lagana (<i>frazeologik butunlik</i>)
5	चांदी होना	chandi hona (<i>frazeologik butunlik</i>)
6	चांदी का जूता	chandi ka juuta
7	चंडी का पहरा	chandi ka pehra
मोती (<i>marvarid</i>)		
1	मोती गरजना	moti garajna (<i>frazeologik qo‘shilma</i>)
2	मोती ढलकाना	moti Dhalkana (<i>frazeologik qo‘shilma</i>)
3	मोती पिरोना	moti pirona
4	मोती रोलना	moti rolna
5	मोतियों से मुंह भरना	motiyon se munh bharna
6	मोतियों के तौल बिकना	motiyon ke taul bikna (<i>frazeologik qo‘shilma</i>)
लाल (<i>yoqut</i>)		
1	लाल उगलना	lal ugaln
सोना (<i>oltin</i>)		
1	सोने की कटार	sone ki kaTar
2	सोने की चिड़िया	sone ki chiRiya
3	सोने का घर मिट्टी करना	sone ka ghar miTTi karna
4	सोने में घुन लगाना	sone me ghun lagana
5	सोने में सुगंध होना	sone me Sugandh hona
6	सोने में सुहागा	sone me suhaga
7	सोने की चिड़िया हाथ से निकल जाना	sone ki chiRiya hath nikal jaanaa
8	सोने लेकर मिट्टी तक न देना	sone lekar miTTi tak na dena